

9- dekabr - Korruptsiyaga qarshi kurashish xalqaro kuni

// 09 December 2022 yil

<https://special.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/9-dekabr-korruptsiyaga-qarshi-kurashish-xalqaro-kuni>



BMT Bosh Assambleyasining 2003-yil 21-noyabrdagi rezolyusiyasiga muvofiq, 2004-yildan boshlab **“9-dekabr - Butun jahon korruptsiyaga qarshi kurashish kuni”** sifatida belgilangan. Shu munosabat bilan **“O'zkimyosanoat” AJ**da ijroiya boshqaruv apparati xodimlari hamda Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi mas'ul vakili ishtirokida tadbir bo'lib o'tdi.

Unda yurtimizda korruptsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, qabul qilinayotgan qonun, qaror va farmonlar hamda ularning ijrosi haqida so'z bordi. Shu bilan birga, Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi mas'ul xodimi tomonidan agentlikning bugungi kundagi faoliyati haqida batafsil ma'lumotlar berildi.

Shuningdek, tadbir davomida “O'zkimyosanoat” AJning korruptsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi birinchi kuzatuv auditidan muvaffaqiyatli o'tganligi va xalqaro auditorlik va sertifikatlash tashkiloti tomonidan korruptsiyaga qarshi kurashish mexanizmi amalda samara berayotganining asosiy ko'rsatkichi hisoblanuvchi **ISO 37001: 2016** xalqaro muvofqlik sertifikati muddati yana bir yilga uzaytirilgani alohida e'tirof etildi.

Darhaqiqat, korruptsiya – davlat va jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy rivojlanishini tanazzul yoqasiga olib

keladigan, jahon maydonidagi nufuziga putur yetkazadigan, xalqning esa haqiqat, adolat haqidagi fikr-mulohazalarini tamoman boshqa tomonga o'zgartirib yuboradigan xavfdir. Shu bois, "O'zkiyosanoat" AJ va tarmoq korxonalarida korrupsiyaga qarshi murosasiz kurashish borasida aniq tizimli ishlar muntazam ravishda amalga oshiriladi.







"O'zbekimiyosanoat" AJ
MATBUOT XIZMATI